

**“TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION”
xalqaro universiteti talabalariga ta'lim
grantlarini taqdim etish va taqsimlash
to'g'risida
NIZOM**

1-§. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Tashkent International University of Education” xalqaro universiteti talabalariga ta'lim grantlari (keyingi o'rinlarda — “TIUE ta'lim” granti)ni taqdim etish va taqsimlash tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomga kiritilmagan bandlar “Tashkent International University of Education” xalqaro universitetining “Talabalar uchun qo'llanma”siga hamda boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2-§. Maqsad va vazifalar

3. Yuqori salohiyatli va bilimli yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, grant kvotalarining taqsimlanishida sog'lom raqobat muhitini yaratish TIUE xalqaro universiteti (keyingi o'rinlarda Universitet)ning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi.

4. Ta'lim grantlarini taqsimlash jarayonining aniq muddatlari hamda yo'nalishlarga kvotalar ajratish Universitet tomonidan belgilanadi va o'quv yili yakunlangunga qadar e'lon qilinadi.

5. Ta'lim grantlari bakalavr ta'lim yo'nalishi, kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalar uchun to'rt yil muddatga ajratiladi.

6. Ta'lim grantiga talabgorlar uchun TIUE universitetining rasmiy elektron platformasi orqali onlayn ro'yxatdan o'tish va shaxsiy hujjatlarni yuklash imkoniyati yaratiladi.

3-§. Ta'lim granti uchun imtihonlarni tashkil etish va o'tkazish

7. Ta'lim granti uchun saralash imtihonlari “Matematika”, “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Ingliz tili” fanlaridan tashkil qilinadi.

8. Ta'lim granti uchun saralash imtihonlari TIUE universitetiga kirish uchun Qabul komissiyasiga ariza topshirgan hamda imtihonlarda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar o'rtasida tashkil qilinadi.

9. Ta'lim granti uchun saralash imtihonlari har yili avgust oyining ikkinchi o'n kunligi davomida o'tkaziladi.

10. Ta'lim granti uchun saralash imtihonlarini tashkil qilish uchun TIUE universiteti mas'ul xodimlari va pedagog kadrlaridan iborat Tashkiliy qo'mita tuziladi.

Tashkiliy qo'mita:

- imtihonlar o'tkaziladigan joyni belgilaydi va tasdiqlaydi;
- hakamlar hay'ati tarkibi, auditoriya rahbarlari va kuzatuvchilari ro'yxatini shakllantiradi;
- imtihon materiallarining maxfiyligini saqlaydi hamda imtihonlarni mazkur Nizom talablari asosida o'tkazilishini ta'minlaydi.

11. Ta'lim granti uchun saralash imtihonlarida abituriyentlar shaxsini tasdiqlovchi xujjat (ID karta yoki pasport) bilan ishtirok etishi majburiy hisoblanadi.

4-§. Ta'lim granti uchun imtihonlar natijalarini baholash mezonlari

12. Ta'lim granti uchun imtihonlarida ishtirokchilar Matematika, Informatika va axborot texnologiyalari hamda Ingliz tili fanlaridan test topshiriqlarini bajaradilar.

Bunda:

Matematika fanidan - 34 ballgacha;

Informatika fanidan - 34 ballgacha;

Ingliz tili fanidan - 32 ballgacha;

Jami 100 ball

Har bir fandan ishtirokchilarga 20 tadan yopiq test savollari (A, B, C, D javob variantlaridan tanlanadi) taqdim qilinib, ularni bajarish uchun jami 180 daqiqa vaqt beriladi.

Matematika va Informatika fanlaridan har bir to'g'ri javob uchun 1,7 balldan, Ingliz tili fanidan har bir to'g'ri javob uchun 1,6 balldan beriladi.

13. Yakuniy natijalariga ko'ra ishtirokchilar orasidan yo'nalishlar bo'yicha ballar ketma-ketligida eng yuqori va 76 balldan kam bo'lmagan natija ko'rsatgan g'oliblar aniqlanadi.

14. Yakuniy natijalarga ko'ra, g'olib o'rinlar uchun bir nechta ishtirokchilarning

ballari teng bo'lgan taqdirda, Matematika fanidan test natijalari bo'yicha ko'p ball to'plagan ishtirokchi ustunlikka ega boladi.

15. Barcha holat bo'yicha ham ballar teng bo'lgan taqdirda o'quvchilarga hakamlar hay'ati tomonidan Matematika fanidan qo'shimcha 3 ta ochiq test (javobi yoziladigan) beriladi va bu uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi hamda yakuniy natijalarga ko'ra g'olib aniqlanadi.

16. Ta'lim granti uchun imtihonlar natijalari imtihon o'tkazilgandan keyin 5 (besh) ish kunida TIUE xalqaro universitetining rasmiy saytida e'lon qilinadi.

5-§. Imtihon materiallarini tayyorlash

17. Ta'lim granti uchun imtihonlarda foydalaniladigan barcha topshiriqlar TIUE xalqaro universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi.

6-§. Hakamlar hay'ati

18. TIUE xalqaro universiteti professor-o'qituvchilaridan iborat bo'lgan Hakamlar hay'ati tuziladi hamda Hakamlar hay'ati ishtirokchilar tomonidan bajarilgan ishlarni to'g'ri javoblar va baholash mezonini asosida xolisona tekshiradi va baholaydi.

19. Ishtirokchilarning test topshiriqlariga bergan javoblar varag'ida bitta savolga ikki va undan ortiq javoblar to'g'ri deb belgilangan bo'lsa, ularning birontasi ham inobatga olinmaydi va ushbu savolning javobi uchun 0 ball qo'yiladi.

Eslatma: ishtirokchilarning hujjatlarida qalbakiylik aniqlangan yoki ishtirokchining o'rniga boshqa shaxs asossiz ishtirok etgan taqdirda mazkur ishtirokchining imtihon natijalari bekor qilinadi.

7-§. Apellyatsiya jarayonini tashkil qilish

20. Ta'lim granti uchun imtihonlar ishtirokchilari tomonidan imtihon jarayonlarini tashkillashtirish masalalari bo'yicha e'tirozlari bo'lgan yoki mazkur nizomini buzish holatlari aniqlangan taqdirda, shu paytning o'zida yoki imtihonlar tugagandan keyin bir soat ichida Tashkiliy qo'mitaga murojaat qilishlari mumkin. Belgilangan muddatdan keyin bildirilgan e'tirozlar qabul qilinmaydi.

8-§. Ta'lim granti talablari

21. "TIUE ta'lim" granti da'vogarlari umumiy o'rta yoki o'rta maxsus ta'limni bitirganlik to'g'risidagi tegishli shaxodatnoma yoki diplomga ega bolishlari hamda 2025-yilning 31-dekabr kuniga qadar 18 yoshga to'lgan bo'lishi shart.

22. O'quv yili yakuniga ko'ra ta'lim grantiga ega talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichi ya'ni modullardan olgan baholarining umumiy o'rtacha balining 100

ballik shkala bo'yicha qiymati quyidagi holatlarda grantga ta'sir qiladi:

86 ball dan kam bo'lmagan holatda talabaga ta'lim granti 100% keyingi o'quv yiliga ham beriladi;

76 -85 ball oralig'ida ta'lim grantining 50% i keyingi o'quv yiliga taqdim etiladi;

76 balldan past bo'lgan holatda ta'lim granti berilishi to'xtatiladi va talaba o'z hisobidan o'qishini davom ettirishi mumkin bo'ladi. Bunda, ta'lim grantini yo'qotgan talabaning navbatdagi o'quv yili yakunida 76 balldan yuqori natija ko'rsatgan taqdirda, grant olishi uchun tanlovda qayta ishtirok etish huquqi saqlanib qoladi.

23. Ta'lim grantiga ega bo'lgan talabalar Universitetning ijtimoiy hayotida, turli tadbirlarda, olimpiada va tanlovlarni tashkil qilishda hamda targ'ibot ishlarida faol ishtirok etishlari lozim.

24. Ta'lim grantiga ega bo'lgan talabalar Universitetni muvaffaqiyatli tamomlaganlaridan so'ng, belgilangan tartibda ishlab berish majburiyatiga ega bo'lmaydilar.

9-§. Ta'lim grantini qayta taqsimlash

25. O'quv yili yakuniga asosan ta'lim grantiga ega talabalarning grant o'rinlari bekor qilingan taqdirda, mazkur grant o'rinlarini qaytadan taqsimlash maqsadida asosiy imtihonlardan 86 va undan yuqori ball to'plagan talabalar o'rtasida qayta tanlov (saralash imtihoni) tashkil qilinadi. Bunda ta'lim grantini qayta taqsimlash masalasi Universitet ixtiyori bilan amalga oshiriladi.

26. Talabaning tashabbusi bilan "Akademik kechiktirish", "Harbiy xizmatga chaqirilish" va talabalar safidan chiqarish hamda vaqtincha chetlashtirish va boshqa vaziyatlar yuzaga kelgan holatlarda mazkur talabaning ta'lim granti bekor qilinadi.

10-§. Yakunlovchi qoidalar

27. Mazkur Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar Universitetning ichki tartib-qoidalariga muvofiq belgilangan tartibda hal etiladi.

